

TALABALARDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Maqolada kognitiv kompetensiya tushunchasi, mustaqil ta'limda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish usullari va psixologik omillari, talabalarning fikrlash jarayonlarini takomillashtirishdagi zamonaviy yondashuvlar, talabalarning kognitiv kompetensiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur bo'lgan psixologik shart-sharoitlar va ta'lim usullari, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, jarayon, mustaqil, ijod, izlanish, tajriba, kognitiv, pedagogika, kompetensiya, yondashuv, sharoit, natija, zaruriyat, ahamiyat, tahlil, rivojlanish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье анализируется понятие когнитивной компетентности, методы и психологические факторы развития когнитивных компетенций в самостоятельном обучении, современные подходы к совершенствованию мыслительных процессов студентов, психологические условия и методы обучения, необходимые для успешного развития когнитивных компетенций студентов, их роль и значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: образование, процесс, самостоятельность, креативность, исследование, опыт, когнитивность, педагогика, компетентность, подход, обстоятельства, результат, необходимость, важность, анализ, развитие.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING COGNITIVE COMPETENCIES IN STUDENTS

Annotation. The article analyzes the concept of cognitive competence, methods and psychological factors for the development of cognitive competencies in independent education, modern approaches to improving students' thinking processes, psychological conditions and educational methods necessary for the successful development of students' cognitive competencies, their role and significance in the educational process.

Keywords: education, process, independent, creativity, research, experience, cognitive, pedagogy, competence, approach, circumstances, result, necessity, importance, analysis, development.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda bilim va axborotning tezkor rivojlanishi bilim berish tizimi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Hozirgi kunda ta'lim faqatgina faktlarni yoddan bilish yoki ma'lum bir sohadagi ma'lumotlarni o'rganish emas, balki talaba shaxsining tanqidiy fikrlash, muammolarni samarali hal etish, innovatsion g'oyalarni yaratish va o'z bilimlarini hayotda amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kognitiv kompetensiyalar — bilimni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va qo'llashga oid psixik jarayonlar hamda ko'nikmalar — ta'lim jarayonida eng asosiy natija hisoblanadi.

Kognitiv kompetensiyalar talabaning ma'naviy va intellektual salohiyatini belgilaydi, uning tahlil qilish, sintez qilish, baholash, kreativ fikrlash kabi faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydi. Ular shuningdek, ma'lumotlarni o'zlashtirish va ular asosida yangi bilimlarni shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli talabalarda ushbu

214 kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat ta'lim muassasalaridagi o'qish jarayonini samarali tashkil etish, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, kognitiv kompetensiyalar faqat kognitiv jarayonlar bilan cheklanmay, ularning shakllanishida psixologik omillar, ya'ni motivatsiya, e'tibor, xotira, fikrlash uslublari va emotsional holat kabi jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ularni rivojlantirish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash va individual xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Shuningdek, kognitiv salohiyatni oshirishdagi psixologik omillar, pedagogik va psixologik metodikalar, innovatsion yondoshuvlar hamda ularni amalda qo'llash yo'llarini o'zlashtirish taqozo qilinadi. Maqsadimiz — talabalarning intellektual salohiyatini mustahkamlash, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mustaqil, ijodiy faol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdir.

Asosiy qism. Bugungi kunda bilim olish jarayonida nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki ularning mohiyatli va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun kognitiv kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kognitiv kompetensiyalar — bu ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish kabi psixik jarayonlarni o'z ichiga olgan qobiliyatlari majmuasidir.

Talabalarda ushbu kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish va mustahkamlash jarayonlarini psixologik jihatdan tahlil qilish muhimdir [3].

Bugungi zamonda ta'lim tizimida kognitiv kompetensiyalarining rivojlanishi talabaning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv kompetensiyalar — bu ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va qo'llash qobiliyatlari bo'lib, ularni shakllantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Ushbu kompetensiyalar orqali talabalar muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu boisdan, ularning rivojlanishida psixologik jihatlarning o'rni va ahamiyati kattadir.

Kognitiv kompetensiyalar — bu bilimlarni qabul qilish, xotiralar, diqqat, fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish jarayonlarini o'z ichiga olgan psixik qobiliyatlardir. Ular ma'naviy faoliyatning asosiy elementlari bo'lib, bilimlarning samarali o'zlashtirilishi va hayotda qo'llanilishi uchun xizmat qiladi [14].

Talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi psixologik omillar muhim rol o'ynaydi [9]:

- *motivatsiya* — ta'limga bo'lgan qiziqish va intilish talabalarning faoliyat ko'rsatish darajasini belgilaydi. yaxshi motivatsiya kognitiv faollikni oshiradi.

- *e'tibor va xotira* — ma'lumotlarni qabul qilish va saqlash uchun zarur bo'lgan asosiy kognitiv jarayonlardir.

- *fikrlashning turli uslublari* — tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari talabaning muammolarni yechishdagi salohiyatini oshiradi.

- *emotsional holat* — stress va tushkunlik kognitiv faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun psixologik barqarorlikni ta'minlash muhim.

Kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi pedagogik va psixologik usullar samarali hisoblanadi:

- *faol o'qitish* — talaba ishtirokidagi interaktiv mashg'ulotlar, muammoli o'qitish va keys-stadilar.

- *metakognitiv strategiyalar* — talabalarning o'z o'ylash jarayonlarini kuzatish va boshqarish qobiliyatini oshirish.

- *mulqot va guruhli ish* — fikr almashish, muhokamalar va jamoaviy loyihalar kognitiv salohiyatni rivojlantiradi.

- *ijodiy topshiriqlar* — kreativ yondashuvlarni qo'llash talabalarning yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini oshiradi.

Talabalarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash muhimdir. Psixologlar motivatsiyani oshirish, stressni boshqarish va individual xususiyatlarni inobatga olish orqali ta'lim samaradorligini oshira oladi.

Natijalar va muhokamalar. Hozirgi zamonning globallashuv jarayonlari va axborot-maslahat tizimlarining tez rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Talabalarning muvaffaqiyati nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni samarali qo'llash, muammolarni tanqidiy va kreativ yondoshuvlar bilan hal etish qobiliyatiga bog'liq. Bu qobiliyatlar — kognitiv kompetensiyalar — hamda ularni shakllantirishdagi psixologik omillar ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Kognitiv kompetensiyalar nafaqat bilimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, balki talabaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, muammolarni hal qilish qobiliyati va mustaqil faoliyat ko'rsatish salohiyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu sababli, ushbu kompetensiyalar va ularni rivojlantirishdagi psixologik aspektlarni o'rganish ta'lim pedagogikasi va psixologiyasida muhim vazifa hisoblanadi.

Kognitiv kompetensiyalar — bu insonning ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, sintez qilish, xotiralash, diqqat va fikrlash qobiliyatlari jihatidan salohiyatidir (Anderson, 2005) [1]. Ular intellektual faoliyatning asosiy qismlarini tashkil etib, yangi bilimlarni samarali o'zlashtirish va amalda qo'llashga yordam beradi. Psixologiyada kognitiv kompetensiyalar insonning ma'lumotlarni yaratish va ishlash qobiliyati sifatida qaraladi, bu esa ta'lim jarayonida muvaffaqiyatning asosiy omili sanaladi (Sternberg & Ben-Zeev, 2001) [12].

Talabalarda kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik omillari:

1. Motivatsiya

Ta'limda motivatsiya kognitiv jarayonlarning faolligini belgilaydi. Motivatsiyaning yuqori darajasi talabaning diqqatini jalb qilish, yangi bilimlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash qobiliyatini oshiradi (Deci & Ryan, 1985). Shuningdek, ichki motivatsiya kognitiv kompetensiyalarini mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega [4].

2. E'tibor va xotira

Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida e'tibor va xotiraning roli beqiyos. Kratkovremennaya xotira ma'lumotlarni uzluksiz qayta ishlash va ularni uzoq muddatli xotiraga o'tkazishda muhimdir (Baddeley, 2000). E'tiborni boshqarish qobiliyati esa talabaning o'qish jarayonidagi samaradorligini belgilaydi [2].

3. Fikrlash va metakognitiv salohiyatlar

Tanqidiy va kreativ fikrlash kognitiv kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Metakognitiv salohiyatlar — o'z fikrlash jarayonini tushunish va boshqarish qobiliyati — talabalarga muammolarni samarali hal etishda yordam beradi (Flavell, 1979) [15].

4. Emotsional va psixologik holat

Stress va tushkunlik kognitiv faoliyatga salbiy ta'sir qiladi. Psixologik barqarorlik va emotsiyalarni boshqarish qobiliyati talabaning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega (Lupien et al., 2007) [6].

Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish usullari:

Interaktiv ta'lim usullari — muhokamalar, keyslar, loyihalar asosida o'qitish — talabalarning fikrlash salohiyatini va muammolarni yechish qobiliyatini oshiradi (Prince, 2004) [7].

Talabalarning o'z o'ylash jarayonlarini kuzatishi va boshqarishiga yo'naltirilgan mashg'ulotlar kognitiv kompetensiyalarni mustahkamlashda muhim hisoblanadi (Schraw & Dennison, 1994) [11].

Guruhdagi hamkorlik va muloqot yordamida talabalar yangi bilimlarni birgalikda tuzish, tahlil qilish va baholash salohiyatini rivojlantiradilar (Johnson & Johnson, 1999) [5].

Kreativlikka yo'naltirilgan topshiriqlar va loyihalar talabalarning yangi g'oyalar yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyatini oshiradi (Runco, 2004) [10].

Ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlarda kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv va metakognitiv metodlar talabalarning o'rganish